

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

Surxondaryo viloyati Hokimliginig  
O'rta maxsus kasb-hunar ta'limi boshqarmasi

TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI

O'rta maxsus kasb-hunar ta'limi tizimi kadrlar  
malakasini oshirish tizimi va ularni qayta tayyorlash  
fakulteti

**DENOV KOMPYUTER TEXNOLOGIYALARI KASB-  
HUNAR KOLLEJI INFORMATIKA FANI O'QITUVCHISI  
XUDOYQULOV ALISHERning "HTML tili va unda Web  
sahifalar tayyorlash texnologiyalari" mavzusidagi**

# MALAKAVIY ISHI

Ilmiy rahbar:

A.Esonqulov

Termiz - 2011

## **MUNDARIJA**

### **I. Kirish**

### **II. Asosiy qism. Html tili va gipermatlarnlar**

**2.1. Web texnologiyalar haqida asosiy tushinchalar**

**2.2. Html tilida Web sahifani yaratish**

**2.3. Html tilining teglari**

**2.4. Html tilida paragraf elementi**

**2.5. Html tilida abzats elementi**

**2.6. Html tilida matnni formatlash va uning  
ko'rinishini o'zgartirish**

**2.7. Web sahifaga rasm va multimedia ob'ektlarini  
joylashtirish**

**2.8. Web sahifaga bir necha hujjatlarni Joylashtirish**

### **III. HISOB QISMI**

### **HULOSA**

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

## I. KIRISH.

Respublikamizda zamonaviy axborot texnologiyalari yutuqlaridan barcha sohalarda foydalanish taboro keng rivojlanib bormoqda. Buni ko'plab ta'lim muassasalari, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari o'quv jarayoniga elektron darsliklarni qo'llash jadal sur'atlar bilan o'sib borishida ham ko'rishimiz mumkin.

Ta'lim tizimida axborot texnologiyalarini qo'llash, asosan, shaxsiy kompyuterlar va axborot texnologiyalarining pedagogik dasturiy vositalarining yaratilishi bilan bog'liq. Zamonaviy axborot texnologiyalarini barcha sohalarga qo'llanilishi, iqtisodiy samara berish bilan bir qatorda, o'quv jarayonida ham o'qitish usullarini qo'llashga keng imkoniyatlar ochib bermoqda.

Ma'lumki, hozirgi kunda ko'pgina sohalarda, shu jumladan o'quv jarayonida elektron darsliklar yaratishda axborot texnologiyalarni tadbiq etish, katta natijalarni bermoqda. Animatsion modellar elektron darslik materiallarini obrazli qilib ko'rsatishda muhim ahamiyatga ega. Chunki fanning xususiyatlaridan kelib chiqqan holda dars jarayonida namoyish qilinishi kerak bo'lgan ob'ektning ayrim ichki xossalarini va ko'rinmaydigan jarayonlarni talabalar ko'z oldida to'liq tasavvur qila olmaydi, yoki tasavvur qilishi qiyin kechadi.

Kompyuterda animatsion modellar yordamida bunday holatlarni ko'rishi natijasida talabalar to'liq tasavvurga va ko'nikmalarga ega bo'lishi mumkin. Elektron qo'llanmalar yaratishda Web texnologiyasi muhim omil bo'lib hisoblanadi. Gipermatn va gipermurojaat kompyuter texnologiyasining eng kata yutuklaridan biridir. Micromedia Flash sistemasida elektron darsliklar uchun animatsion modellarni yaratish imkoniyati juda katta. Unda animatsiyalarni bir necha formatlarda saqlash imkoniyati bor. Rasmlarni, ovozlarni va vektorli grafikani Flash sistemasi .WSF kengaytmali faylda saqlaydi.

FLA formatida saqlanadigan animatsiya fayllari faqatgina Micromedia Flash muhitida ishlaydi. Bu formatning foydali tomoni shundaki, uni xohlagan paytda

qayta tahrirlash mumkin. Micromedia Flash sistemasi animatsiyalarni Html formatida saqlash imkoniyatiga ham egadir.

**Malakaviy ish maqsad va vazifalari.** Ushbu malakaviy ish ishning maqsadi deb quyidagilarni belgiladik: hozirgi kunda tez rivolanib borayotgan yo'lishlardan biri web sahifalarda yaratish va ularni Internet tarmog'iga joylashtirishdir. Ushbu diplom ishida Html tilida Web texnologiyasidan foydalangan holda Web sahifalar yaratish texnologiyasi kelirilgan. Web texnologiyasida saxifaga rasmlar va multimedia ob'ektlarini joylashtirish bo'yicha ko'rsatmalar berilgan.

**Malakaviy ishning amaliy ahamiyati.** Ma'lumotlarni sahifalar orqali sistemali holda internet tarmog'iga joylashtirish muhim ahamiyatga ega. Chunki, foydalanuvchi qidirayotgan ma'lumotlarni sahifalarga ajratilgan holda ko'rishi va harbir sahifaning ma'm bir ma'noga ega ekanligi yaratilgan web sahifa strukturasiga bog'liqdir.

**Berilgan mavzuning dolzarbligi.** Html tilining rivojlanishida DHtml dan tashqari Internet sahifalarini yaratishda yana bir imkoniyat – programmalar ishchi xolatini saqlab turish paydo bo'ladi. Brauzer programma ko'rib chiqadigan hodisalar sonini ko'paytirish hujjat dizaynini yaxshilashga olib keladi. Bunday imkoniyatlar, ya'ni DHtml andozani qo'llash, faqat MS Internet Explorer dan boshlab amalga oshiriladi. Uning yordamida Html tili hujjatga u yoki bu effektlarni (yangi elementlarni) kiritish mumkin. Buning uchun JAVA programmalash tilidan foydalaniladi. Ma'lumki, xozirgi kunda Internet dan foydalanuvchilar soni kun sayin oshib bormoqda. Bu esa o'z navbatida Internet uchun Web sahifalar va saytlar yaratish, hamda ularga axborotlarni joylashtirishni tobora yaxshilashni foydalanuvchilardan talab etadi.

Multimedia texnologiyasining keng rivojlanish va tarqalish davri Web texnologiyalarining yaratilishi bilan chambarchas bog'liqdir.

## II. Asosiy qism.

### HTML TILI VA GIPERMATNLAR

Yildan-yilga axborot texnologiyalari rivojlanib, takomillashib va mukamallashib bormoqda. Kompyuter texnologiyalari kirib bormagan sohani topish mushkul. Hozirgi kunda axborot texnologiyasi xalq xo'jaligining deyarli barcha jabhalarini qamrab oldi. Kompyuter texnologiyalarining juda katta imkoniyatlarga ega bo'lgan matn muxarrirlari, elektron jadval protsessorlari, ma'lumotlarni boshqarish sistemalari va Web texnologiyalari kabi dasturiy vositalirining yaratilishi barcha sohalarda o'z samarasini bermoqda.

Kompyuter texnologiyasida Web texnologiyadardan foydalanish kun sayin barcha sohalarda o'z aksini topmoqda. World Wide Web (WWW, tarjimasi – Jahon o'rgimchak to'ri) Internetning eng yaxshi xizmatlaridan bo'lib, matn, grafik axborot, tovushli fragmentlardan tasgkil topgan hujjatlar bilan ishlash imkoniyatini yaratib beradi.


WWW foudalanuvchiga Internetning istalgan qismidagi serverdagi hujjatni topib o'qishni ta'minlovchi tizimdir. WWWning muhim hossalardan biri hujjatlarga gipermatn ishoratlari («Ссылка»лари) kiritilishi mumkinligidadir.

Bu ishoratlarning afzalligi shundan iboratki, ular yordamida foydalanuvchi yangi hujjatni ekranga yuklash jarayonini juda oson yo'l bilan amalga oshiradi: yani sichqoncha ko'rsatkichi gipermatndagi kerakli ishoratga keltirilib bosilishi kifoya. Istalgan hijjat boshqa hujjatlarga ishoratlarni ma'lum ko'rinishda saqlashi mumkin. Agar matnda boshqa hujjatlarga ishorat bo'lsa, bunday hujjat **Gipermatn** deyiladi. Gipermatnning o'zi esa boshqa matnli hujjatlarga yo'l ko'rsatadi. Demak, matnlar qaysi mamlakatning serverida turishidan qat'I nazar, tezda o'tish imkoniyatini beradi. Matnlar bilan bir qatorda Web hujjatlarida rangli harakatdagi tasvirlarni, turli video kliplarini, umuman multimedia ma'lumotlarini ham ko'rish mumkin.

Amalda WWW tizimida barcha hujjatlar gipermatn ko'rinishida bo'lib, ko'pchiligi grafik tasvir, tovush ma'lumotlari va videofragmentlarni o'z ichiga

oladi. Internetda ma'lumotlar Web sahifalar ko'rinishida tasvirlanadi. Web sahifa - Internet uchun maxsus hujjat fayli bo'lib, u Html (Hyper text Marker Language - gipermatnlarni ajratadigan til) asosida yaratiladi. Bu holda yozilgan hujjatlarni ko'rish uchun maxsus dasturlar ishlatiladi. Bunday dasturlar **Browser**(ko'ruvchi yoki sharhlovchi)lar deb ataladi.

Bu dasturlarning bir qancha turlari mavjud. Xususan ulardan ko'p ishlatiladiganlari Internet Explorer, Netscape Communicator, Opera va boshqalardir. O'z navbatida, bu Browserlar ham o'z versiyalariga ega. Windows muhitida standart ishlatiladigan Browser bu Internet Explorerdir. Internet Explorer ishchi oynasining umumiy ko'rinishi quyidagi 1- rasmda keltirilgan.



1 - rasm. Microsoft Internet Explorer oynasi

Web ning eng asosiy xususiyatlaridan biri, unda turli matn, video, grafik ob'ektlarga gipermurojaatning mavjudligidir. U o'z sahifalarini saqlash va uzatish uchun Internet Explorer dan foydalanadi.

Web bir sahifadan boshqa sahifaga murojaat qilishni ta'minlaydi.

Webni katta kutubxona ko'rinishida tasavvur qilish mumkin.

Web tugunlari kitobga o'xshasa, «Web sahifalari» esa bu kitoblarning sahifalarini eslatadi.

Sahifalarda yangiliklar, rasmlar, kinofilmlar, ovoz yozuvlari va h.k. bo'lishi mumkin.

Har bir kompyuter foydalanuvchisi Webga ulanganda dunyo bo'yicha tarqalgan ma'lumotlarni olish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Hujjatlar bilan ishlashni tezlashtirish uchun Web da ma'lum buyruqlar mavjud. Ular quyidagilar:

- avvalgi hujjatga qaytish;
- hujjatning keyingi sahifasiga o'tish;
- ko'rsatilgan axborot resursiga o'tish;

- sahifani chiqarish;
- boshlang`ich hujjatga qaytish;
- joriy hujjatda boshqa hujjatlarning murojaatlarini ko`rsatish;
- dasturdan foydalanish haqida ma'lumotlarni ekranga chiqarish;
- avvalgi hujjatdan keyingi murojaatga o`tish;
- hujjatga murojaat bilan o`tish;
- WWW dan chiqish;
- ko`rib chiqilgan hujjatlarning ro`yxatini chiqarish;
- ko`rsatilgan hujjatga qaytish;
- bir sahifa pastga o`tish;
- hujjatning keyingi sahifasiga qaytish;
- hujjat ichida bir sahifa yuqoriga chiqish.

HTML tili bu siz bilgan C, C++, Java, Basic va boshqa dasturlash tillari kabi to`g`ri ma`nodagi dasturlash tili hisoblanmaydi.

HTML tili yordamida biz MS DOS, Windows va boshqa operatsion sistemalarda ishlaydigan to`laqonli dastur yoza olmaymiz.

Hujjatni barcha kompyuterlar tushunadigan holda ko`rsatish uchun kompyuterlarning tushunadigan yagona tilini bilishga to`g`ri keladi.

Shu sababli WWW da qo`llaniladigan HTML tili barpo etildi. Ushbu tilni birinchi bo`lib Tim Berners – Li ishlab chiqdi.

WWW sistemasidan qanqaydir hujjat yoki habar olsangiz, ekranda yaxshi formatlangan, o`qish uchun qulay matn paydo bo`lganligini ko`rasiz. Bu shuni anglatadiki, WWW hujjatlarida ma'lumotlarni ekranda boshqarish imkoniyati ham mavjud.

Siz foydalanuvhchining qaysi kompyuterda ishlashini bilmaysiz va WWW hujjatlar aniq bir kompyuter platformalariga mo`ljallangan yoki qaysidir format bilan saqlanishini oldindan ayta olmaysiz.

Ammo kompyuterda ishlayotgan foydalanuvchi qaysi terminalda ishlashidan qat'iy nazar yaxshi formatlangan hujjatni olishi kerak bo`ladi.

Bu muammoni HTML andoza tili hal qiladi. U hujjatning tuzilishini


ifodalovchi uncha murakkab bo'lmagan buyruqlar majmuidan iborat.

HTML buyruqlari orqali matnlarning shaklini o'zgartirish, ya'ni matnning ma'lum bir qismini ajratib olib, boshqa faylga yozish va boshqa joydan turli xil rangli tasvirlarni qo'yish mumkin.

U boshqa hujjatlar bilan bog'laydigan gipermatnli aloqalarga ega.

## 2.1. WEB TEXNOLOGIYALAR HAQIDA ASOSIY TUSHINCHALAR

Oxirgi yillarda Internetning tez su'ratlar bilan rivojlanishi Web texnologiyalarining rivojlanishiga olib keldi. Ular Web sahifa va saytlarini avtomatik ravishda yaratish va chiqarish uchun eng kuchli programma vositalari bo'lib, ular sirasiga - Microsoft FrontPage va Microsoft Flash programma paketlarini misol qilish mumkin.



2-rasm. FrontPage programmasi  
ishchi oynasi.

FrontPage programmasi ishchi oynasining umumiy ko'rinishi quyidagi 2-rasmda keltirilgan.

Bu paket programmalar Web sahifani Html tilida yaratadi.

Hozirgi kunda Web texnologiyalari dasturiy vositalarining juda katta sinfi yaratilmoqda.

Microsoft FrontPage programma paketi Web sahifani yaratish va uni ko'rsatish uchun muharrirlik vositasidir.

Bu Web sahifani yaratish muharririni o'rganish Html tilini o'rganishga qaraganda ancha oson bo'lib, uni o'rganish ko'p vaqt talab qilmaydi. Oxirgi yillarda paydo bo'lgan Flash texnologiya vevdzaynerlar orasida keng tarqala boshladi. Buning asosiy sabablaridan biri Flash Texnologiya Web – saytlariga ovoz va grafika elementlaridan foydalanish imkoniyatini yaratib, ularning dinamik ko'rinish olishiga imkon yaratilishidir. Micromedia Flash sistemasida Web sahifalar uchun animatsion modellarni yaratish imkoniyati juda katta. Unda animatsiyalarni bir necha formatlarda saqlash imkoniyati bor.


Rasmlarni, ovozlarni va vektorli grafikani Flash sistemasi .WSF

kengaytmali faylda saqlaydi. FLA formatida saqlanadigan animatsiya fayllari faqatgina Micromedia Flash muhitida ishlaydi. Bu formatning foydali tomoni shundaki, uni xohlagan paytda qayta tahrirlash mumkin. Micromedia Flash sistemasi animatsiyalarni Html formatida saqlash imkoniyatiga ham egadir.

## 2.2. HTML TILIDA WEB SAHIFANI YARATISH

Mamlakatimizning hozirgi kundagi dolzarb masalalaridan biri yoshlarga har tomonlama chuqur bilim berishdir. Ayniqsa axborot texnologiyalarining rivojlanib borayotgan bir paytda kompyuter soxasiga bo'lgan qiziqishni uyg'otishga e'tibor berish har doimgidek muhimdir. Xususan, internet tizimida ishlaydiganlar soni kundan-kunga oshib bormoqda. Bu esa yoshlarimizning veb saytlar yaratish buyicha qiziqishlari taboro ortib borganidan dalolat beradi. Gipermatndagi xohlagan sahifani ochib, uning HTML tili kodini ko'rishingiz mumkin. Buning uchun ixtiyoriy Web sahifasini oching vs **“Вид”** menyusining **“Просмотр HTML- кода”** punktini tanlang. Bunda siz ko'rib turgan sahifangizning HTML kodini ko'rasiz. HTML ko'di bloknot orqali ochiladi. Web sahifa ishchi oynasining umumiy ko'rinishi quyidagi 3-rasmda keltirilgan. Endi tajriba o'tkazamiz.

Kompyuterda matnli hujjat barpo qilamiz. Buning uchun sichqonchaning o'ng tugmasini bosing va **“Создать”** punktidan **“Текстовый документ”** komandasini tanlang. Bu bilan siz **“Текстовый документ.txt ”** hujjatini barpo qildingiz. Ushbu faylni ochamiz va unga quyidagi matnlarni kiritamiz:



3-rasm. Web sahifa oynasining umumiy ko'rinishi

<Html>

<Head>

<Title> Assalomu Alaykum! </Title>

</Head>

<Body>

<p> Mening birinchi WEB sahifam! </p>

</Body>

</Html>

Web-dizayn haqida internet saytlaridan biz ko'pgina ma'lumotlar olishimiz mumkin. lekin u ma'lumotlarning deyarli hammasi rus va ingliz tillarida.

O'zbek tilidagi ma'lumotlar kamligi aksariyat yoshlarimizning veb-dizayn bilan erkin shug'ullanishlariga imkon bermaydi. Sahifa bilan tanishish davomida qisqacha bo'lsada veb-saytlar yaratish uchun HTML tilida qanday ishlash bo'yicha tavsiyalar olishingiz mumkin. Buning uchun veb-saytlar yaratish uchun eng qulay bo'lgan dasturlardan biri Macromedia dreamweaver mx 2004, rasmlar ustida erkin ishlash imkonini beruvchi Photoshop 7.0 dasturlaridan xabardor bo'lishingiz lozim. Internetning WWW hizmati asosan web-sahifalarga bog'liq ekan, ular qanday yaratiladi? – degan savol tug'ulishi tabiiy. HTML – dasturlash tili hisoblanmaydi. Bu tilda hujjat (web-sahifa) tayyorlash uchun Windowsning Bloknout kabi oddiy matn muharriri yetarli. HTML tilining buyruqlari “<” va “>” belgilari orasiga yoziladi va deskriptor yoki teg deb ataladi. Masalan, yozuvi HTML tilidagi hujjatning boshlanishini anglatadi.

Demak, HTML – oddiy matn muharririda deskriptorlardan foydalanib yoziladigan til. HTML-hujjat – deskriptorlar qo'llanilgan HTML matnli fayl bo'lib, u web-sahifani tashkil etadi. HTML-hujjat fayli nomining kengaytmasi “html” bo'ladi. HTML-hujjatni web-brouzerlar yordamida hotiraga yuklansa, u ekranga web-sahifa ko'rinishida chiqadi. HTML tili (muntazam) muttasil rivojlanib bormoqda. O'z navbatida web-brouzerlar ham yangilanib turilibdi. Hozirgi kunda web-sahifa tayyorlash uchun asosan HTML.4 tilidan foydalaniladi. Uning ba'zi buyruqlarini “eski” web-brouzerlar (Internet Explorer-3, Internet Explorer-4) bajara olmaydi. Bundan tashqari turli web-brouzerlar, masalan, Internet Explorer va Netscape ham bir biridan bir oz farq qiladi. Shu sababli bitta HTML-hujjat turli web-brouzerlarda bir oz farq bilan aks etishi mumkin.

### **2.3. HTML TILINING TEGLARI**

Html tili oddiy programmalash tiliga yaqin bo'lib, Web sahifalarini tayyorlash protsessida ishlatiladi va u gipermatnli ma'lumotlarni Web sahifalarida ifodalaydi. Hozirgi kunda shaxsiy kompyuterlarda Internet uchun Web sahifalarini

tayyorlashning bir qancha usullari mavjud bo'lib, ulardan biri Html tili yordamida tayyorlashdir. Internetning 90- yillar boshlarida yangi zamonaviy rivojlanish bosqichi paydo bo'lib, bu davrda ma'lumotlarni almashishning yangi bir texnologiyasi ishlab chiqildi. Bu ma'lumotlarni uzatish texnologiyasi bayonnomasiga Html (Hyper text transfer Protokol – gipermatnli protokolni uzatish) deyiladi. Html hujjat fayllari Htm yoki Html kengaytmasiga egadir. Bu bayonnoma (protokol) bilan birgalikda Worl Wide Web (WWW) xizmati yuzaga keldi va u internetda bu bayonnoma faylini uzatish uchun xizmat qilmoqda.

Gipermatn - bu matn bo'lib maxsus kodlashtirilgan, boshqa hujjat fayllari kabi qo'shimcha boshqaruvchi elementlar:

- formatlash;
- tasvirlash;
- multimedia qo'yish;
- gipermurojaat (gipersso'lka) kabi elementlarni o'z ichiga oladi.

Maxsus programmada gipermatnli hujjatni chiqarish (tasvirlash) uchun matnga maxsus kodlarni joylashtirishda “razmetka” (bo'lish) tushunchasi kiritilgan.

“Razmetka” oddiy yoki murakkab bo'lishi mumkin. Web sahifalarni yaratishda Html operatorlaridan foydalaniladi. **Bu operatorlar Html “teg”lari deb yuritiladi.**

**Teg** - bu simvol (belgi) lardan tashkil qilingan bo'lib, ular barchasi “<” belgisi bilan boshlanib, “>” belgisi bilan tugaydi. Har bir teg o'zining maxsus vazifasiga ega bo'lib, u ochuvchi va yopuvchi teg bo'ladi. Yopuvchi teg “G” qiyshiq chiziq bilan boshlanadi **<teg nomi > .. </teg nomi >.**

Web sahifalarini tuzishda ishlatiladigan Html tilining ba'zi teglarini ko'rib chiqamiz. Hujjat qismida izohlar berish maxsus teg yordamida bajariladi, ya'ni izoh “<! -- ”bilan boshlanib , “ -- > ”bilan tugaydi.

Masalan:

**<!--Bu izoh -->**

**Izoh o'z ichiga istalgan belgini olishi mumkin.**

**<HTML> . . </HTML>** -sizning hujjatingizni kodlashtirishda ishlatish uchun tilni aniqlaydi.

Ochuvchi hujjat boshida, yopuvchi esa oxirida joylashtiriladi.

**<I> . . </I>** -matnni qo'lyozma shrift bilan tasvirlaydi.

**<IMG>** -rasm joylashtiradi.

Masalan:

**<IMG SRC= "MUST.JPG">**,bu erda Must – sizning WEB varag'ingizdagi fayl bilan bitta katalogda turgan rasm nomi.

**<LI> . . </LI>** -ro'yhatdagi har bir element boshlanishini aniqlaydi.

**<OL> . . </OL>** -to'liq tartiblangan ro'yhatni aniqlaydi.

LI –uning elementlari.

**<P> . . </P>** -bitta abzatsning boshlanishini aniqlaydi.

**<SMALL> . . </SMALL>** -kichik o'lchamdagi matnni ko'rsatadi.

**</TABLE>** -jadvalni aniqlaydi.

**<TD> . . </TD>** -jadval satrida alohida yacheykani ramkaga oladi.

**<TH> . . </TH>** -jadval sarlavha yacheykasi uchun ishlatiladi.

**<TITLE> . . </TITLE>** -sarlavhani tashkil etadi.

**<TR> . . </TR>** -jadvalda satrning boshi va oxiri.

**<U> . . </U>** - matnni ostki qismi chizilgan holdatasvirlaydi.

**<UL> . . </UL>** -to'la tartiblangan ro'yhatni aniqlaydi.

**<VAR> . . </VAR>** -programma o'zgaruvchilar nomlarini belgilaydi.

Odatda kursiv ko'rinishida bo'ladi.

## 2.4. HTML TILIDA PARAGRAF ELEMENTI

HTML tilida paragraph elementi quyidagicha yoziladi: `<P>` `</P>`. Bu element paragraflarni belgilash uchun ishlatiladi. Elementlar atributlar va qiymatlarga ega bo'lishi mumkin. Ular aniqlik kiritish uchun ishlatiladi. Misol uchun matnni ko'rsatilgan manzildan boshlab yozish mumkin, ya'ni o'rtadan, chapdan yoki o'ngdan. Buning uchun `Align` (inlizcha tekislash so'zidan olingan) atributi ishlatiladi. HTML da sayt yaratishda asosiy qoidalarga albatta e'tibor berish lozim. Sahifalar 2 qismga bo'linadi. Bosh qismi (HEAD) va tana qismi (BODY).

HEAD qismida siz ishlayotgan sahifaning SARLAVHASi, uning METAsi, STILlari (bu teglar haqida to'liqroq ma'lumotni sahifa davomida ko'rishingiz mumkin) ga oid teglar saqlanadi. BODY qismida esa asosiy ma'lumotlar, ya'ni siz sayt orqali ko'rsatib bermoqchi bo'lgan ma'lumotlar, rasmlar, musiqiy fayllar va shu kabi fayllarni Internet Explorer sahifasida namoyish etish uchun beriladigan buyruq teglari joylashadi. Demak teglar ochiladi va odatda / belgisi bilan yopiladi. Aynan ana shu buyruqlar berilmay qolsa ham siz kutgan natija chiqmasligi mumkin. Umuman `< D >` ko'rinishdagi deskriptor uchun `< /D >` deskriptori mavjud bo'lib, birinchisi biror amal boshlanishini bildirsa, ikkinchisi shu amal yakunlanganini bildiradi.

Biz teglarni deskriptorlar deb ham atashimiz mumkin. Har qanday web sahifalardagi ma'lumotlar albatta teglar yordamida o'qish uchun qulay va ko'rinishli qilib yaratiladi. `< HTML >` -Hamma ma'lumotlar va amal bajaruvchi teglaraynan ana shu tegning orasida yozilishi lozim. `< HEAD >` -Asosan shrift yoki stillar, ko'pincha bizfoydalanadigan skriptlar HEAD tegi orasida joylashtiriladi.

`< TITLE >` -Sahifaning sarlavhasi TITLE tegi orasiga olib yoziladi

`< BODY >` - Hamma ma'lumotlar - matnlar, rasmlar va shu kabi ma'lumot beruvchi ob'ektlar tana qismi body - tegi orasida joylashtiriladi.

## 2.5. HTML TILIDA ABZATS ELEMENTI

Soʻz boshidan boshlab yozish uchun maxsus element `<hx></hx>` qoʻllaniladi. Bu yerda X 1dan 6 gacha boʻlgan raqamlarni qabul qiladi. Yaʼni,

`<h1> matn X=1</h1>`

`<h2> matn X=2</h2>`

`<h3> matn X=3</h3>`

`<h4> matn X=4</h4>`

`<h5> matn X=5</h5>`

`<h6> matn X=6</h6>`

Endi tekstlar bilan ishlashni koʻrib chiqamiz. Biz sahifamizga maʼlumotlarning asosiy qismini tekst sifatida qoʻyamiz. Shuning uchun tekstlarni tartib bilan chiroyli dizaynda namoyish etish sahifaning oʻqimishli boʻlishiga yordam beradi. Tekstlar yozilishi qatorida yangi qatordan, abzatsdan yozilishi mumkin. Buning uchun, demak tekstlarga rang tanlash ham alohida nozik did talab qiladi.

Biz tekstga `< p >` va `< /p >` teglaridan foydalanamiz.

Textni qalin, yotiq va tagiga chizilgan holda yozish uchun `<b></b>`, `<i></i>` va `<u></u>` teglari orasida yozish kifoya. Tekst orqali boshqa sahifaga yoʻl korsatmoqchi boʻlsangiz albatta HREF tegida foydalanasiz.

Misol uchun `<a href="http://connect.uz"> www.connect.uz</a>`  
Koʻrinishda yoʻl koʻrsatsak albatta WWW.CONNECT.UZ sahifasi ochiladi.

Yana tekstlarni har xil sarlavhalarda ham yozish mumkin.

`<H1>`

`<H2>`

`<H3>`

`<H4>`

`<H5>`

`<H6>`

Biz albatta sahifa yaratishda jadvallardan ham foydalanamiz. Buning uchun `<table>` - Jadval, `<td>` - jadval ustuni va `<tr>` - jadval qatorlari teglaridan foydalaniladi.

```

<table width="100%"bordercolor="#0000FF" border="1">
  <tr>
    <td colspan="2"><div align="center">Birlashgan katak</div></td>
    <td width="45%" rowspan="3"><div align="center">Birlashgan katak</div></td>
  </tr>
  <tr>
    <td width="30%"><div align="center">Alohida kataklar </div></td>
    <td width="25%"><div align="center"></div></td>
  </tr>
  <tr>
    <td><div align="center"></div></td>
    <td><div align="center"></div></td>
  </tr>
</table>

```

|                  |  |                  |
|------------------|--|------------------|
| Birlashgan katak |  | Birlashgan katak |
| Alohida kataklar |  |                  |
|                  |  |                  |

Quyida jadval va unga mos bo'lgan kodlarni ko'rdingiz.

## 2.6. HTML TILIDA MATNNI FORMATLASH VA UNING KO'RINISHINI O'ZGARTIRISH

Biz bilamizki, shrift to'rt xil ko'rinishda yoziladi.

1. Qalin shriftni qo'llash uchun `<b>` ochuvchi va `</b>` yopuvchi elementdan foydalanamiz.
2. Qiya shriftni qo'llash uchun esa `<i>` ochuvchi va `</i>` yopuvchi elementdan foydalanamiz.
3. Tagiga chizilgan shriftni qo'llash uchun `<u>` ochuvchi va `</u>` yopuvchi elementdan foydalanamiz.
4. Fiksirlangan shriftni qo'llash uchun `<tt>` ochuvchi va `</tt>` yopuvchi elementdan foydalanamiz.

Bir matnning 2 yoki 3 xil ko'rinishini ta'minlash uchun yuqoridagi elementlarni ketma – ket qo'llash mumkin bo'ladi. Ya'ni

`<b><u><i>` qalin, qiya va tagi chizilgan ko'rinishni beradi `</b></u></i>`.

`<Abbr>..</Abbr> -matnni qisqartma shaklida tasvirlaydi.`

`<Acronym>..</Acronym> -qisqartmalarni belgilash uchun ishlatiladi.`

`<Cite>..</Cite> -tsitatalar, kitoblarning nomlari , boshqa manbaalarga murojaat qilish.`

`<Code>..</Code>- o'z matnini programmaning kichik qismi sifatida belgilaydi.`

`<Del>..</Del> -o'z matnini o'chirilgan deb belgilash.`

`<Dfn>..</Dfn> -o'z matn qismini ta'rflangan ko'rinishda saqlaydi.`

## **2.7. WEB SAHIFAGA RASM VA MULTIMEDIA OB'EKTLARINI JOYLASHLIRISH**

Html hujjati asosan hujjat matnlari va tega “razmetka” laridan tashkil topadi.

Html hujjati – oddiy matn bo'lib, uni istalgan matn muharririda, masalan oddiy “ Блокнот” matn muharririda tashkil qilish mumkin.

Html hamma hujjatlari aniq o'z strukturasiga ega.

Hujjat `<Html>` tega bilan boshlanib `</Html>` tega bilan tugaydi. Uning har bir bo'lagi `<Head>` tega bilan boshlanib `</Head>` tega bilan tugaydi va hujjat ma'lumotlarini butunlay o'z ichiga oladi.

Bu hujjat bo'lagi o'z navbatida ichiga `<Title>` va `</Title>` tegalarini oladi.


Bu tega ichida hujjatlarning sarlavhasi keltiriladi.

Windows sistemasida ko'pgina Web sahifalarini ko'rish vositalari bo'lgan “brauzerlar” bu hujjat sarlavhalarpi o'z oyna sarlavhasi qatorini to'ldirish uchun ishlatiladi.

Hujjat matnlari esa hujjatning asosiy qismi (tanasi)da joylashadi.

Hujjat asosiy qismi `<Body>` va `<G`Body>` tegasi orasida joylashadi.

Oddiy Html hujjati strukturasida quyidagicha bo'lishi mumkin.



```

<Html>
  <Head>
    <Title> Hujjat sarlavhasi </Title>
  </Head>
  <Body>
    Matnning ekranda ko'rinishi
  </Body>
</Html>

```

Bu Web sahifaning ko'rinishi quyidagi 4-rasmda keltirilgan.

Html tilida Web sahifaga rasmlar va multimediya ob'ektlarini joylashirish mumkin.

Ana endi sahifaga rasm qo'yish uchun foydalaniladigan teg IMAGE bilan tanishamiz.

IMAGE tegi faqatgina sahifaga rasmlarni joylashtirish uchun foydalaniladi. Rasmlar sahifalarni qiziqroq va tasavvurga boyroq qilib ko'rsatadi.

Demak rasm qo'yish uchun <image> tegini kiritamiz va scr="" qo'yib qo'shtirnoq orasiga rasm olinadigan manzil ko'rsatiladi.

Albatta wigh="" va height="" buyruqlarida rasmning kengligi va balandlik parametrlari ko'rsatiladi. alt="" tegidan foydalanib rasmga izoh yozish mumkin. Pastdagi rasmda shu rasm va unga mos kodlar ko'rsatilgan.



```



```

Biz qisqacha bo'lsada HTML ning teglari - buyruqlari bilan tanishib chiqdik. O'ylaymizki ana shu arzimas ma'lumotlar yangi boshlovchilar uchun ozgina bo'lsada yordam beradi.

Endi sizga Shaxsiy veb sayt yaratish uchun ma'lumotlar beramiz.

Agar Web shifaga ma'lumotlarni va boshqa ob'ektlarni chetdan qo'shib joylashtirish kerak bo'ladigan bo'lsa, ular kompyuterda oldindan mavjud bo'lishi lozim. Chetdan qo'yiladigan ob'ektlar bu rasmlar va multimedia ob'ektlari bo'lishi mumkin. Bundan tashqari Web sahifaga boshqa Web sahifani gipermurojaat orqali ulash mumkin. Illyustratsiyalar Web sahifadani bezashda muhim rol o'ynaydi.

Rasmlar Web hujjatidan tashqarida alohida saqlanadi, lekin ular Web sahifaning ichida brauzerlar yordamida tasvirlanadi. Rasmlarni Web sahifaga joydashtirish uchun Html tilining **<Img>** nomli tegasi ishlatiladi.

Bu tegani umumiy holda Web sahifa fayli programmasida quyidagicha tasavvur qilish mumkin.

**<Img Src="Rasm fayli nomi" Width=rasm kengligi  
o'lchami Height=rasm balandligi o'lchami Altq  
"Alternativ matn ">**

Bu erda Width=rasm kenligi o'lchami, Heightqrasm balandligi o'lchami Alt="Alternativ matn" atributlarini (parametrlarini) bermasa ham bladi.

Agar berilmasa rasmning o'lchami saqlangan holatida o'zgarmasdan chiqadi va u ko'rsatilganda adternativ so'z chiqmaydi.

Alternativ so'z bu rasmga mos, uni aniqlaydigan so'zdir.

Masalan rasm mashina bo'lsa alternativ so'z o'rniga "mashina" deb ham yozish mumkin. Bu so'zni Web sahifa tuzuvchi kiritadi.

Rasmni tasvirini gipermurojaat qilib ham ishlatish mumkin.

Buning uchun <Img> tegasi <A> va </A> telalari orasida bo'lishi lozim.

Multimedia texnoloogiyasining keng rivojlanish va tarqalish davri Web texnologiyalarining yaratilishi bilan chambarchas bog'liqdir.

Multimedia ob'ektlarini Web sahifalarda ko'rsatish uning ko'rinishni

bezashda yanada muhim kasb etmoqda.

Web sahifaga multimedia ob'ektlarini ulashning eng oddiy usullaridan biri bu – gipermurojaat tegasi bo'lgan **<A>** tegasidan foydalanishdir.

Bu tegani umumiy holda Web sahifa fayli programmasida quyidagicha tasavvur qilish mumkin.

**<A Href="Multimedia fayli nomi">  
Multimediani ishga tushurish gipermatni    <A>**

Bu erda Web sahifa ishga tushganda **"Multimediani ishga tushurish gipermatni"** so'zi gipermurojaat bo'lib chiqadi, ya'ni bu so'z ustiga kelib sichqoncha tugmasi bosilsa multimedia ob'ekti ishga tushadi.

Multimedia ob'ektini Web sahifaga to'g'ridan to'g'ri ulash uchun esa Html tilining **<Embed>** tegasi ishlatiladi. Bu tegani umumiy holda Web sahifa fayli programmasida quyidagicha tasavvur qilish mumkin.

**<Embed    Src="multimedia    fayli    nomi    "    Width=  
kenligiHeight=balandligi >**

Bu erda Width=rasm kenligi o'lchami, Height=rasm balandligi o'lchami atributlarini (parametrlarini) bermasa ham bladi.

Agar berilmasa rasmning o'lchami saqlangan holatida o'zgarmasdan chiqadi. Gipermurojaat tagiga chizilgan yoki cheklangan so'z va rasmlar bo'lib, unda Web adresi mujassamlashgan bo'ladi. Gipermurojaat matni boshqa matnlardan rangi yoki tagiga chizilganligi bilan ajralib turadi.

## 2.8. WEB SAHIFAGA BIR NECHA HUIJATLARNI JOYLASHTIRISH

Ko'p hollarda Web sahifani bir necha oynalarda tasvirlash kerak bo'ladi. Bunday hollarda Html tili brouzer programmasi oynasini bir nesa oynalarga ajratish imkonini yaratib beradi va bu oynalarga **freymalar** deyiladi.

Freymalarni tuzish uchun Html tili maxsus Web hujjat strukturasi tashkil qiladi va u oddiy Web hujjatidan farq qiladi. Bu Web hujjat strukturasi o'ziga hujjat tanasini olmaydi, ya'ni uning asosiy qismi mavjud emas. Ular faqat boshqa sahifalarga murojaat qiladi.

Freymalarni tuzish uchun maxsus <Framaset> nomli tega ishlatiladi.

Bu tega o'z ichiga <Frema> tegalarini oladi.

Bu tegani umumiy holda Web sahifa fayli programmasida quyidagicha tasavvur qilish mumkin.

```
<Fremaset Cols(yokiRows)="Oynani %larda berish">  
    <Frema Src="Birinchi hujjat nomi">  
    <Frema Src="Ikkinchi hujjat nomi">  
    .....  
</Fremaset>
```

Rows -atributi oynalarni gorizontal bo'yicha bo'lishni aniqlaydi.

Oynalarga mos ravishda ularning protsent hisobidagi sonlari keltiriladi.

***Masalan, Cols="30%,40%,30%"***

Bu esa Web sahifadagi birinchi freymaning umumiy oynadagi olgan joyi 30%, ikkinchisiniki 40%, uchunchisiniki esa 30% ekanligini bildiradi.

Sayt yaratayotgan har bir shaxs saytning dizayniga e'tibor berish lozim. Bundan tashqari saytning banneriga saytga mos holda nom qo'yish kerak, hamda bannerining dizayniga katta ahamiyat berish kerak, chunki ko'p hollarda saytning banneriga qarab saytga baho beriladi.

Shaxsiy veb-sayt yaratishda o'zi haqidagi ma'lumotlardan kelib chiqqan holda sahifalardan iborat linklar bo'lishi lozim.

Uning umumiy ko'rinishi quyidagi 5–rasmda keltirilgan.



Saytning har bir sahifasini tayyorlashda uning mazmuniga va tashqi ko'rinishiga katta e'tibor berish lozim bo'ladi.

Har bir sahifa tayyorlanayotgan paytda sahifa matnlari ko'p bo'lib ketishi foydalanuvchini zeriktirib qo'yishi mumkin. Shuning uchun har bir sahifada mazmunli ma'lumot hamda albatta chiroyli sur'atlar o'rin olishi lozim.

Quyidagi 6-rasmda "Ish faoliyatim" sahifasini ko'rinishi keltirilgan:



Shaxsiy web-sayt tayyorlashda "O'zim haqimda", "Yutuqlarim", "Mening oilam", "Mening do'stlarim", "Fotolavhalar", va "Yangiliklar" sahifalardan tashkil etilsa, ushbu tayyorlagan saytingiz ajoyib chiqadi.

### III. HISOBOT QISMI

#### WEB SAHIFA TAYYORLASH

**Misol.** Web sahifaga rasmlar joylashtirish.



Bu Web sahifa programmasi FrontPage programmasi Html rejimida quyidagi ko'rinishda chiqadi.

**<Html>**

**<Head>**

**<Title> Rasm joylashtirish </Title>**

**</Head>**

**<Body>**

**<Font Color=red size=6> Web sahifada rasmlar </Font>**

**<p><Img Src="winchester.bmp" Width="275" Height="275">**

**<Img Src="notebook.bmp" Width="275" Height="275">**

**</Body>**

**</Html>**

Bu programmani FrontPage programmasi avtomatik tarzda tuzadi.

Bu Web sahifani yaratish uchun FrontPage programmasi ishga tushirilib uning "Normal" rejimida **Web sahifada rasmlar** matni yoziladi va keyin ketma-ket ravishda menyu qatorining Bstavka bo'limiga kiriladi va risunok buyrug'i berilib, oldin **winchester.bmp** va keyin esa **notebook.bmp** rasm fayllari qo'yiladi.

## XULOSA

Ma'lumki, hozirgi kunda ko'pgina sohalarda, shu jumladan o'quv jarayonida elektron darsliklar yaratishda axborot texnologiyalarni tadbiq etish, katta natijalarni bermoqda. Mamlakatimizning hozirgi kundagi dolzarb masalalaridan biri yoshlarga har tomonlama chuqur bilim berishdir. Internetda Web sahifalar yaratishda Web texnologiyalari muxim omil bo'lib xizmat qiladi. Gipermatn va gipermurojaat kompyuter texnologiyasining eng katta yutuqlaridan biridir.

Ushbu diplom ishida Web texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlari keltirilgan. Web texnologiyasida saxifaga rasmlar va multimedia ob'ektlarini joylashtirish bo'yicha ko'rsatmalar berilgan. Ayniqsa axborot texnologiyalarining rivojlanib borayotgan bir paytda kompyuter soxasiga bo'lgan qiziqishni uyg'otishga e'tibor berish har doimgidek muhimdir.

Xususan, internet tizimida ishlaydiganlar soni kundan-kunga oshib bormoqda. Bu esa yoshlarimizning veb saytlar yaratish buyicha qiziqishlari taboro ortib borganidan dalolat beradi.

Animatsion modellar elektron darslik materiallarini obrazli qilib ko'rsatishda muhim ahamiyatga ega. Chunki fanning xususiyatlaridan kelib chiqqan holda dars jarayonida namoyish qilinishi kerak bo'lgan ob'ektning ayrim ichki xossalarini va ko'rinmaydigan jarayonlarni talabalar ko'z oldida to'liq tasavvur qila olmaydi, yoki tasavvur qilishi qiyin kechadi. Kompyuterda animatsion modellar yordamida bunday holatlarni ko'rishi natijasida talabalar to'liq tasavvurga va ko'nikmalarga ega bo'lishi mumkin.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Barkamol avlod-O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. (O'zbekiston respublikasining «Ta'lim to'g'risida» va «Kadrlar tayorlash milliy dasturi to'g'risida»gi qonunlar).-T.: «Sharq», 1998,-64b.
2. U.Yu.Yuldashev, R.R.Boqiev, F.M.Zokirova «Informatika», G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2002 yil.
3. Informatika: Kasb-hunar kollejlari uchun o'quv dasturi. A.A. Abduqodirov, R.D. Aloyev, R.R. Boqiev va boshqalar – T.:2000.-12b.
4. Ю.Шафрин. Основы компьютерной технологии. Справочник. Изд. «Туркистан», Бишкек- 1998г.
5. С.Сименович, Г.Евсеев, А.Алексеев. Специальная информатика. Учебная пособия. М. АЦ-Пресс:-1998г.
6. В. Олифер, Н. Олифер. Компьютерные сети. Принципы, технологии, протоколы. СПб., Питер, 2000.
7. Т. Паркер. Освой самостоятельно TCP/IP. М., Бином, 1997.
8. С. Золотов. Протоколы Internet. СПб., BHV-Санкт-Петербург, 1998.
9. Р. Фардал. Как повысить производительность IP-магистралей. «Сети», 1998, № 5.
10. Морозов. Основы проектирования вычислительных систем М.1999
11. Н. П. Сергеев, Н. П. Вашкевич. – Основы вычислительной техники. – Москва «Высшая школа» 1988.
12. A.Beletskiy. Avtorlik materiallari va o'quv-metodik qo'llanmalar.
13. A. Beletskiy “Модернизация и ремонт ПК”.
14. С. К. Ганиев. Электрон хисоблаш машиналари ва системалари. – Т «Укитувчи» 1990.
15. [www.ixzbt.com](http://www.ixzbt.com) Internet sahifasi.
16. [www.award.com](http://www.award.com) sahifasi.
17. DVD издание “ Супер ДВД библиотека” 2004 г.
18. <http://www.tula.net> internet sahifasi.
19. Internet portal–Internet Universitet - [www.intuit.ru](http://www.intuit.ru), <http://www.citforum.ru>